

“IKKINCHI JAHON URUSH YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA TA’LIM VA ILM - FAN.”**Hasanova Feruza Xudoyberdi qizi***Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv**va texnologiyalar universiteti**Tarix yo‘nalishi 3 – kurs talabasi.***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada men ikkinchi jahon urush yillarida fan va ta’lim tizimi o’zgarishi yoki rivojlanish davri nafaqat O’zbekistonda balki boshqa chet davlatda ham o’zgarishlar bo’lgan. Urush yillarida respublikada 20 mingdan ortiq oliy va o’rta maxsus ma’lumotli mutaxassislar tayyorlandiki, bu sanoat va qishloq xo’jaligini oliy malakali kadrlar bilan ta’minladi. Urush davrining barcha qiyinchiliklariga qaramay, O’zbekistonda oliy ta’lim tizimida ko’p ishlar qilindi va bu el-yurtning fashizm ustidan qozonilgan g’alabaga qo’shgan beqiyos hissasining bir qismi bo’lib qoldi. Ikkinchi Jahon urushi yillarida O’zbekistonda ta’lim va ilm-fan sohasida bir qator muhim o’zgarishlar yuz berdi. Urush davrida ko’plab ilmiy va ta’lim muassasalari Rossiya va boshqa hududlardan O’zbekistonga ko’chirildi, bu esa mahalliy ilm-fan va ta’lim rivojiga ijobiy ta’sir ko’rsatdi.

Kalit so’zlar: Ta’lim, ilm – fan yuksalishi, SSSR, san’at va adabiyot rivojlanishi, oliy ta’lim tizimi, texnikum, akademiklar, energetik olimlar, astranomiya, siyosat.

Kirish

1941 yil 22 iyunda boshlangan urush tufayli barcha soxalar kabi ilm-fan tizimini ham o’zgartirish davr talabiga aylandi. Urush yillarida ilmiy-tadqiqot ishlarini umumiy muvofiqlashtirish ishlari 1940 yilda tashkil etilgan SSSR Fanlar akademiyasining O’zbekiston Filliali (UzbekFan) zimmasiga yuklatilgan. Urush boshlanganining ertasiga, 1941 yil 23 iyunda SSSR Fanlar akademiyasi Prezidiumining navbatdan tashqari yig’ilishi bo’lib o’tdi, uning natijasida Fanlar akademiyasi faoliyatini mudofaa ehtiyojlari uchun qayta qurish zarurligi to’g’risida qaror qabul qilindi. O’zfanning 1941yil 2 iyuldagi buyrug’ida "Urush davri har birimizdan bor kuchimizni ishga solishni, eng qat’iy mehnat intizomiga rioya etishimizni talab qiladi. Hamma narsa mudofaa manfaatlariga bo’ysundirilishi kerak", deyilgan edi bu talablar respublikaning barcha ilmiy muassasalari faoliyatiga asos bo’ldi. 1941 yil 21 oktyabrda Moskva shahrida mamlakat olimlarining antifashist mitingi bo’lib o’tdi. Ular butun dunyo olimlariga qarata fashizmga qarshi kurashish zarurligi bo’yicha murojaat qildilar. Barcha respublikalarda olimlarning antifashistik tashkilotlari ish boshladi.

O'zbekistonda ham olimlarning antifashistik tashkiloti tuzilib, unga T.Qori- Niyoziy rais, S.Umarov kotib, V.Romanovskiy, M.Shatelen, L.Brodskiy a'zolar sifatida mas'ul bo'lgan edilar ¹. Qayd etish kerak, Qori-Niyoziy 1939-1943 yillarda O'zSSR Xalq Komissarlari Soveti raisining fan, madaniyat va san'at bo'yicha muovini, ayni vaqtda SSSR Fanlar akademiyasining O'zbekiston filiali Prezidiumining raisi (1940-1943 yillar) bo'lib ishlagan edi. Urushning dastlabki yillarida SSSR Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlarini evakuasiya qilish jarayonlari VKP(b) MQ va SSSR XKSning 1941 yil 27 iyundagi "Odamlar kontingenti va qimmatbaho mol-mulklarni olib chiqish va joylashtirish to'g'risida"², 1941 yil 13 iyuldagi "Fanlar akademiyasining evakuasiyasi to'g'risida"³, 1941 yil 13 oktyabrdagi "SSSR Fanlar akademiyasi institutlarini evakuasiya rejasi"⁴ va boshqa bir qator qarorlar asosida amalga oshirildi. Ko'plab ilmiy tashkilotlarning evakuasiya yo'nalishi Ural, Volgabo'yi va O'rta Osiyo Respublikalari etib belgilanib, umumiy hisobda 45ta punktga joylashtirilgan edi. Bu davrda Toshkent shahri ilm-fanni evakuasiya qilishning muhim markaziga aylandi. Toshkentga ko'chirib kelingan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining ishlarini muvofiqlashtirish, joylashtirish, olimlar faoliyati uchun tegishli shart-sharoitlarni qilish o'ta murakkab vazifa edi. T.Qori-Niyoziy respublikaning ilm-fan sohasi mas'uli sifatida bu jarayonlarning oldingi saflarida turdi. U o'sha davrni shunday xotirlaydi: "O'zbekiston Xalq Komissarlari Sovetining bir Majlisi hozirgacha mening esimda. 1942 yilda bo'lsa kerak, kechqurun soat to'qqizda boshlangan Majlis kechasi bilan davom etib, ertasiga erta bilan soat o'nda bir soat tanaffus bo'lgandan keyin, yana kunduzi va kechasi davom etib, uchinchi kuni erta bilan tamom bo'lgan edi. Tabiiy, hamma uyqudan qolgan, garang edi. Hatto Majlis ketayotgan vaqtda ish boshqaruvchining o'rinbosari uyqusizlikdan charchab, o'tirgan joyidan gursillab yiqilib tushgan edi. Bu satrlarni o'qiyotgan kishi: "axir, bitta emas, bir necha Majlis qilsa bo'lmas ekanmi?", – deb o'ylashi mumkin. Yo'q, bo'lmas edi, chunki vaqt va sharoit shuni talab etardi va ko'p vaqt hal qilish lozim bo'lgan masalalarning xarakteri shunday ediki, ularni mutlaqo kechiktirib bo'lmas edi. Hatto, shunday muhim va jiddiy masalalar bo'lardiki, ular to'g'risida yozilgan qarorning siyohi qurimasdan bajarish talab qilinardi. Chunki ish harbiy uslub asosida qurilgan edi. Buning ustiga urush yillaridagi ko'p masalalar bir- biridan murakkab bo'lib, ularni hal qilish ustida ko'p bosh qotirishga to'g'ri kelardi"⁵. Urush yillarida 370 dan ortiq taniqli olimlar Toshkentga

¹ Qori-Niyoziy T. H. Hayot maktabi(Estalik lavxalari). – Toshkent, 1970 yil, B – 231.

² Inson kontingentlari va qimmatbaho mol-mulkni olib chiqish va joylashtirish tartibi to'g'risida nizom VKP Markaziy komitenti va SSSR xalqaro Kengashining qarori. 1941 yil 27 iyun // KPSS Markaziy komitenti xabari. – 1990 yil. – № 6. B – 208.

³ "SSSR fanlar akademiyasini evakuatsiya qilish to'g'risida" evakuatsiya Kengashining 13-sonli qarori 1941 yil 13 - iyul Moskva.

⁴SSSR fanlar akademiyasi institutlarini evakuatsiya qilish rejasi 1941 yil 13 – oktyabr Moskva.

⁵ Qori-Niyoziy T. H. Hayot maktabi (Estalik lavxalari). – Toshkent, 1970 yil B – 255.

ko'chib keldilar⁶. Ular orasida SSSR Fanlar akademiyasi kademiklari va professorlar Boris Grekov, Viktor Kovda va boshqalar bor edi. Agar 1941 yil noyabr oyigach O'zbekistonga Rossiya, Belarus va Ukraina xududlaridan 22 ilmiy-tadqiqot institutlari, 16 oliyi talim muassasalari, 2 qutubxon evakuatsiya qilish, 1943 yil yilg kelib qo'shirib keltirilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari 40 dan ortiq edi. Ulardan 25 tasi Toshkent shahrida, 8 tasi Samarqandda, 5 tasi Farg'ona viloyatida joylashtirildi. Shuningdek, urush yillari O'zbekiston Respublikasi oliy Majlisi qonunchilik palatasi raisi ijodiy toshkillar ham ko'chib kelgan⁷. O'zbekistonlik olimlar evakuatsiya qilish yonma-yon ishladilar. Ular respublika resurslaridan oldingi ehtiyojlari uchun samarali foydalanish yo'llarini izlash, ilmiy muammolarni hal etish va kadrlar tayyorlashda jonbozlik ko'rsatdilar. Shu o'rinda aytish kerakki, ijodkor va ilmiy ziyolilarining to'loqonli mehnat va hayot kechirishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonida bir qator chora - tadbirlar amalga oshirildi. Bunda misol tariqasida O'zbekiston savdo Xalq Komissarligining 1942 yil 30 martdagi "Fan, san'at va adabiyot hodimlariga savdo xizmati qo'rsatish to'g'risida"gi keltirish mumkin. Iqtisodiyotning harbiy asosga o'tishini hisobga olgan holda 1941 yillarda energetika sohasidagi tadqiqotlar katta ahamiyatga ega edi. O'zFAN tizimida 1941 yil noyabrda Energetika instituti ish boshladi. 1943 yil boshida institutda bir qator laboratoriyalar ishga tushirilib, olimlar ishtirokida energiya tizimlarida yo'qotishlarni kamaytirish, bir qator sanoat korxonalarida uskunalarning ish sharoitlarini yaxshilash va energiyani oqilona sarflash bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi⁸. Energetik olimlar Farhod GESi loyihasini taqdim etdilar. Farhod GESini qurish to'g'risidagi qaror SSSR Davlat mudofaa qo'mitasi tomonidan 1942 yil 18 noyabrda qabul qilingan edi. Loyihaviy shartlarni ishlab chiqish 1942 yil dekabr oyida boshlanib, "Farxadstroy" umumiy rahbarligida (loyiha bosh muhandisi – V.V. Poslavskiy, bosh arxitektor – I.Yu. Karakis) qator tashkilotlar ishtirokida amalga oshirildi. Farhod GES loyihasi misli ko'rilmagan qisqa muddatda – 2 oyda ishlab chiqildi. Loyiha ustida respublikaning ko'zga ko'ringan energetiklari, taniqli irrigatorlari, texnika fanlari doktori, professor A.N. Askochenskiy va V.V. Poslavskiy, maslahatchilar sifatida akademiklar g.O. Graftio, B.E. Vedeneev va boshqalar qatnashgan edi.

O'zbek astronomlari bilan birgalikda Moskva va Leningraddan Toshkentga ko'chib kelgan professorlar V.A. Krat, A.A. Mixaylov, A. Vasilev, A. Deych va boshqa olimlar ilmiy tadqiqotlarni olib bordilar. Tashkent observatoriyami ishlariga rahbarlik fizika-matematika fanlari nomzodiv.P. Shcheglov (keyinchalik u O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi etib saylangan – N. Mustafaeva) zimmasiga yuklatilgan edi. Olimlar nafaqat front hamda mudofaa uchun, balki hayot uchun o'ta muhim bo'lgan

⁶ O'zbekiston SSR Buyuk Vatan urushi yillarida. I Jild – Toshkent, 1981 yil B – 188.

⁷ O'zbekiston SSR Buyuk Vatan urushi yillarida I Jild – Toshkent, 1981 yil B – 209.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Markaziy arxivi (O'zR FAMA). 1 – Fond, 1 – ruyxat

aniq vaqt va quyoshning faollashuvi haqidagi aniq ma'lumotlarni tegishli idora va tashkilotlarga taqdim etib borgan. Ikkinchi jahon urush yillari O'zbekiston tarixidagi eng muhim voqea – bu O'zbekiston Fanlar akademiyasining tashkil etilishi edi. 1943 yil 4 noyabrda ilm-fan markazi bo'lgan respublika Fanlar akademiyasining tantanali ochilishi bo'ldi. Anjumanda "O'zbekistonda fan rivojlanishining tarixiy yo'li" nomli ma'ruza qilgan T.N.Qori-Niyoziy "urush davrida ilm-fanning turli yo'nalishlarini qamrab olgan ilmiy-tadqiqot muassasalarining keng tarmog'i vujudga kelganligi, 1943 yilda respublika hududida 19 ta ilmiy-tadqiqot institutlari, 23 ta turli ilmiy stantsiyalar, 3 ta observatoriya, 11 ta muzey va 6 ta ilmiy tashkilotlar faoliyat yuritishini"⁵⁵⁰qayd etgan edi. Fanlar akademiyasining dastlabki tarkibiga O'zbekistonning 29 ta yirik va etakchi olimlari kiritildi. Ularning 21 tasi aniq va tabiiy fanlar, 8 tasi gumanitar-ijtimoiy fanlar vakillari bo'lgan⁹. 11 ta olim O'zbekiston Fanlar akademiyasining birinchi xaqiqiy a'zolari-akademik bo'lib saylandilar. Fanlar akademiyasining birinchi muxbir a'zolari etib 18 ta olim saylandi. 1943-1944 yillarda Fanlar akademiyasi tarkibiga 10 ta ilmiy-tadqiqot muassasalari – matematika va mexanika instituti, Geologiya instituti, Fizika-texnika instituti, Botanika va zoologiya instituti, Tuproqshunoslik va geobotanika instituti, energetika instituti, kimyo instituti, Iqtisodiyot instituti, Tarix va arxeologiya instituti, til va adabiyot instituti kirgan. Shuningdek, tarkibda kitob kenglik stantsiyasi bilan Toshkent astronomik observatoriyasi, Botanika bog'i, Tarix muzeyi, fundamental kutubxona, fan nashriyoti bo'lgan edi. Bu ilmiy muassasalarda 210 ta ilmiy xodim, shundan 28 nafar fan doktori, 57 nafar fan nomzodlari faoliyat yuritgan¹⁰. 1942 yil 5 may kuni SSSR Xalq Komissarlari Sovetining "1942 yilda oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish rejasi va oliy ta'lim muassasalarini mustahkamlash bo'yicha chora- tadbirlar haqida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra 1942 yilda oliy ta'lim muassasasiga qabul qilishda 1941-1942 o'quv yilida o'rta maktablarni "a'lo" va "yaxshi" baholarga tamomlagan abituriyentlar imtihonlardan ozod qilinadigan bo'ldi.

O'zbek davlat universiteti qoshida doktorantura tashkil etishga ruxsat berildi. Natijada, 1943-1944 o'quv yilida 25 kishi, jumladan, 19 nafar o'zbek doktoranturani, 179 kishi, jumladan 94 nafar o'zbek aspiranturani o'tayotgan edi. Respublikaning pedagogika oliy ta'lim muassasalari va o'qituvchilar institutlarini kunduzgi, kechki va sirtqi bo'limlari tomonidan urush yillarida 4300 o'qituvchi tayyorlandi¹¹.

Urush yillarida respublikada 20 mingdan ortiq oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar tayyorlandiki, bu sanoat va qishloq xo'jaligini oliy malakali kadrlar bilan ta'minladi. Urush davrining barcha qiyinchiliklariga qaramay, O'zbekistonda oliy ta'lim

⁹ Aberqulov D. O'zbekiston intellektual tarixidagi fanlar Akademiyasi Ikkinchi jahon urushi // O'zbekiston eng yangi tarixi dolzarbmasalalari. - Toshkent, 2023 yil. - 2-uyqu. B - 41.

¹⁰ Aberqulov D. O'zbekiston intellektual tarixidagi fanlar Akademiyasi Ikkinchi jahon urushi // O'zbekiston eng yangi tarixi dolzarbmasalalari. - Toshkent, 2023 yil. - 2-uyqu. B - 41.

¹¹ Rachinskaya E. V. Buyuk yillarda O'zbekistonda Xalq ta'limi Vatan urushi. Toshkent, 1963 yil. B - 99-100.

tizimida ko'p ishlar qilindi va bu el-yurtning fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan beqiyos hissasining bir qismi bo'lib qoldi.

1. Ilmiy markazlarning ko'chirilishi: O'zbekistonga ko'plab ilmiy-tadqiqot institutlari ko'chirildi, bu esa mahalliy ilmiy salohiyatni oshirdi.
2. Kadrlar tayyorlash: Urush davrida malakali kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari soni oshdi.
3. Ilm-fan rivoji: Ko'plab olimlar, jumladan, kimyo, fizika, matematika va boshqa fanlar bo'yicha tadqiqotlar olib bordi. Bu davrda O'zbekiston ilm-fani yangi bosqichga ko'tarildi.
4. Madaniy almashinuv: Turli hududlardan kelgan olimlar va mutaxassislar bilan tajriba almashinuvi mahalliy ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shdi.

Xulosa: Bu davrda O'zbekiston ilm-fani va ta'limi urush sharoitiga qaramay rivojlandi va urushdan keyingi davrda ham o'zining ijobiy natijalarini berdi. Ikkinchi Jahon urushi yillarida O'zbekistonda ta'lim va ilm-fan sohasida bir qator muhim o'zgarishlar yuz berdi. Urush davrida ko'plab ilmiy va ta'lim muassasalari Rossiya va boshqa hududlardan O'zbekistonga ko'chirildi, bu esa mahalliy ilm-fan va ta'lim rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Adabiyotlar.

1. ¹ Qori-Niyoziy T. H. Hayot maktabi (Estalik lavxalari). – Toshkent, 1970 yil, B – 231.
2. ² Inson kontingentlari va qimmatbaho mol-mulkni olib chiqish va joylashtirish tartibi to'g'risida nizom VKP Markaziy komitenti va SSSR xalqaro Kengashining qarori. 1941 yil 27 iyun // KPSS Markaziy komitenti xabari. – 1990 yil. – № 6. B – 208.
3. ³ "SSSR fanlar akademiyasini evakuatsiya qilish to'g'risida" evakuatsiya Kengashining 13-sonli qarori 1941 yil 13 - iyul Moskva.
4. ⁴ SSSR fanlar akademiyasi institutlarini evakuatsiya qilish rejasi 1941 yil 13 – oktyabr Moskva.
5. ⁵ Qori-Niyoziy T. H. Hayot maktabi (Estalik lavxalari). – Toshkent, 1970 yil B – 255.
6. ⁶ O'zbekiston SSR Buyuk Vatan urushi yillarida. I Jild – Toshkent, 1981 yil B – 188.
7. ⁷ O'zbekiston SSR Buyuk Vatan urushi yillarida I Jild – Toshkent, 1981 yil B – 209.
8. ⁸ O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Markaziy arxivi (O'ZR FAMA). 1 – Fond, 1 – ruyxat
9. ⁹ Aberqulov D. O'zbekiston intellektual tarixidagi fanlar Akademiyasi Ikkinchi jahon urushi // O'zbekiston eng yangi tarixi dolzarb masalalari. - Toshkent, 2023 yil. - 2-uyqu. B - 41.

- 10.¹⁰Aberqulov D. O'zbekiston intellektual tarixidagi fanlar Akademiyasi Ikkinchi jahon urushi // O'zbekiston eng yangi tarixi dolzarbmasalalari. - Toshkent, 2023 yil. - 2-uyqu. B - 41.
- 11.¹¹Rachinskaya E. V. Buyuk yillarda O'zbekistonda Xalq ta'limi Vatan urushi. Toshkent, 1963 yil. B - 99-100.

